



**OSIYO XALQARO
UNIVERSITETI**
XALQARO DARAJADAGI
TA'LIM MASKANI

XORIJIY TILLARNI O'QITISH METODOLOGIYASINI MODERNIZATSIYA QILISH MUAMMOLARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-NAZARIY ANJUMAN TO'PLAMI



**23-24- OKTABR
BUXORO 2025**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**OSIYO XALQARO UNIVERSITETI
АЗИАТСКИЙ МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ASIA INTERNATIONAL UNIVERSITY**

**XORIJIY TILLARNI O'QITISH METODOLOGIYASINI MODERNIZATSIYA
QILISH MUAMMOLARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-NAZARIY ANJUMAN TO'PLAMI**

**СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ НАУЧНО-
ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ, ПОСВЯЩЁННОЙ ПРОБЛЕМАМ
МОДЕРНИЗАЦИИ МЕТОДОЛОГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ
ЯЗЫКОВ НА ПРИМЕРЕ ОТЕЧЕСТВЕННОГО И ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА**

**PROCEEDINGS OF THE REPUBLICAN SCIENTIFIC AND THEORETICAL
CONFERENCE ON PROBLEMS OF MODERNIZING THE METHODOLOGY
OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN THE EXAMPLE OF LOCAL AND
INTERNATIONAL EXPERIENCE**

**BUXORO – 2025
«DURDONA» nashriyoti**

74.00+81.2

37.091.33:81'243(082)

D 43

S.S. Dexkanov

“Xorijiy tillarni o‘qitish metodologiyasini modernizatsiya qilish muammolari: mahalliy va xorijiy tajriba” mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjuman to‘plami / S.S. Dexkanovning umumiy tahriri ostida – Buxoro: «Sadriddin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, - 2025. – 712 b..

UO‘K 37.091.33:81'243(082)

KBK 74.00+81.2

Tashkiliy qo‘mita:

A.A. Ikramov, OXU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais;

M.N. Nurullayev, OXU O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais muovini;

F.F. Usmonov, OXU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor, a'zo;

Z.O. Qoryog'diyev, OXU Ijtimoiy fanlar va texnika fakulteti dekani, a'zo;

Z.Z. Gafarova, OXU Xorijiy til va ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri, a'zo;

M.A. Sadullayeva, OXU Xorijiy til va ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, a'zo;

N.Z. Tasheva, OXU Xorijiy til va ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi, a'zo;

S.U. Berdiyeva, OXU Xorijiy til va ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi, a'zo;

N.X. Hakimova, OXU Xorijiy til va ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi, a'zo;

M.R. Tursunova, OXU Xorijiy til va ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi, a'zo;

S.U. Nasridinova, OXU Xorijiy til va ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi, a'zo;

D.R. Nosirova, OXU Xorijiy til va ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi, a'zo;

R.V. Bafojeva, OXU Xorijiy til va ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi, a'zo;

M.A. Mustafoyeva, OXU Xorijiy til va ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi, a'zo;

M.A. Shodiyeva, OXU Xorijiy til va ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi, a'zo;

S.T. Raximova, OXU Xorijiy til va ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi, a'zo.

© 978-9910-10-522-7

© Dexkanov, S.S

©«DURDONA» nashriyoti

ПЕРСУАЗИВНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ ЭВФЕМИЗМОВ В МЕДИА ПОЛИТИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ_Тригулова Татьяна Александровна.....	502
ZOONIMLAR VA LINGVOKOGNITIV YONDASHUV: O'ZBEK, QORAQALPOQ VA INGLIZ OLIMLARINING QARASHLARI BO'YICHA ILMIY TAHLIL_Turdiyeva Roza Sultanmuratovna.....	503
O'ZBEK VA INGLIZ XALQLARINING MEHNAT TUSHUNCHASIGA BO'LGAN TAFAKKURI_Matsolayeva Surayyo Quvondiq qizi.....	506
ОСОБЕННОСТИ ИННОВАЦИОННОГО УСВОЕНИЯ РУССКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ИНОЯЗЫЧНОЙ АУДИТОРИИ Расулова Камола Юнусжоновна.....	508

4-SHO'BA. ADABIYOT NAZARIYASI VA TARJIMA AMALIYOTIDA INNOVATSION IZLANISHLAR VA YANGI KONSEPSIYALAR

БАДИЙ АСАР ТАРЖИМАСИ ФАҚАТГИНА СЎЗЛАР ВА ГАПЛАР ТАРЖИМАСИ ЭМАС_Бакаева Мухаббат Каюмовна.....	513
G'ARB ERTAKLARIDA MADANIYATNING AKS ETISHI Muxammedova Xulkar Eliboyevna.....	515
BADIY ASARLAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI_Kasimova Rano Raxmatulloyevna.....	517
TRANSLATION PROBLEMS OF DEATH AND LIFE IN ENGLISH AND UZBEK_Karimova Dilorom Shavkatovna.....	518
THE LANGUAGE OF LOVE IN LITERATURE: A UNIVERSAL POWER SHAPING HUMAN LIFE_Mavlonova Ugiloy Khamdamovna, Faxriddinova Ferangiz Feruz qizi.....	521
JAHON ADABIYOTIDA TALABA PORTRETINING BERILISHI VA UNING XARAKTER XUSUSIYATLARI_Abdullayeva Nabiya Idrisovna.....	524
STYLISTIC PECULARITIES OF TRANSLATION_Xoshimkhojayeva Mokhirukh Muzaffarovna, Yodgorova Muqaddas Fakhridin qizi.....	526
"JANUB RENESSANSI" DAVRI YOZUVCHILARI ASARLARINING MILLIY O'ZIGA XOSLIGI_Umrzaqov Islomjon Isroilovich.....	527
С. АХМАД ВА В. РАСПУТИН ИЖОДИДА АДАБИЁТ НАЗАРИЯСИ ВА ЗАМОНАВИЙ ИННОВАЦИОН ИЗЛАНИШЛАР ТАҲЛИЛ МЕТОДЛАРИНИ МАДАНИЯТЛАРАРО ТАҲЛИЛИ_Ходжаев Комилхон Юнусович.....	530
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РОМАНА С. АХМАДА И ПОВЕСТИ В. РАСПУТИНА В КОНТЕКСТЕ ИННОВАЦИОННЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ТЕОРИИ ЛИТЕРАТУРЫ И ПЕРЕВОДА_Ходжаев Комилхон Юнусович.....	532
LUIZA ERDRIKNING "LAROUZ" ASARIDA QABILA QONUNLARI IFODASI_Muxammedova Nilufar Eliboyevna.....	534
ECOLOGICAL THEMES IN UZBEK AND AMERICAN ECO-FICTION NOVELS_Khayrullaeva Nigora begim Nematilloevna.....	536
KONTEKST VA MADANIY OMILLARNING TARJIMAGA TA'SIRI_Marxabo Abdullayeva, Sodiqova Dinora Ilhom qizi.....	539
ВЛИЯНИЕ ПОЭТИКИ УИЛЬЯМА ГИБСОНА НА СОВРЕМЕННУЮ НАУЧНУЮ ФАНТАСТИКУ: КИБОРГ-ОБРАЗЫ В КИБЕРПАНКЕ_Каримов Улугбек Нусратович.....	541
СПЕЦИФИКА ХУДОЖЕСТВЕННОГО АНАЛИЗА КИБОРГ-ОБРАЗОВ В РОМАНАХ МАРДЖИН ПИРСИ_Каримов Улугбек Нусратович, Гоппорова Гульмира Шухратбек кизи.....	544
EFFECTIVE METHODOLOGIES FOR TEACHING TRANSLATION TO UZBEK STUDENTS ACROSS UZBEK, RUSSIAN, AND ENGLISH CONTEXTS_Amanova Gulnoza Tashmuradovna.....	546
BOLALAR RIVOJLANISHIDA TASAVVUR VA SYURREALIZMNING AHAMIYATI (XUDOYBERDI TO'XTABOYEV VA LYUIS KERROLL ASARLARI TAHLILI ASOSIDA)_Kurbanova Muxabbat Mamadjanovna, Sa'dullayeva Gulnoza Quvondiq qizi.....	549
ЖЕНЩИНЫ-ПИСАТЕЛЬНИЦЫ ЭПОХИ ДЖАДИДИЗМА И ВЗГЛЯДЫ МАХМУДХУЖА БЕХБУДИЙ НА ИХ ТВОРЧЕСТВО_Ибрагимова Сайёра Сайдуллаевна.....	552
TARJIMADA ADEKVATLIK VA EKVALENTLIK_Tursunnazarova Elvira Taxirovna, Raxmonzoda Muazzama Jasuriy.....	554
TEACHING SPIRITUAL HEROISM AND MORAL DETECTION IN CHARLES DICKENS'S HUNTED DOWN_Qosimov Abdulhay Axadali o'g'li, Toxirjonova Muxlisa Akmaljon qizi.....	556
ТЕМА «МАЛЕНЬКОГО ЧЕЛОВЕКА» В ЖЕНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ТРАДИЦИИ_Рамазонова Нозима Фарход кизи.....	558
POSTMODERN ADABIY MATNLARINING O'QUVCHIGA YO'NALTIRILGAN TALQINI: INTERTEKSTUALLIK VA NARRATIV FRAGMENTATSIYA VOSITALARINING ESTETIK VA FALSAFIY ASOSLARI_Bafoyeva Roxila Valijonovna.....	560
ADABIYOTDA NUTQ ODOBI TUSHUNCHASI: SHARQ VA G'ARB ANA'ANALARI KESISHMASIDA_Komilova Dildora Shavkatovna.....	564
CHRISTOPHER MARLOWE'S IMPACT ON ENGLISH LITERATURE_Tasheva Nafisa Zaynitdinovna.....	567
PROBLEMS OF RECREATING THE AUTHOR'S STYLE IN LITERARY TRANSLATION (BASED ON SHORT STORIES IN AMERICAN AND UZBEK LITERATURE)_Nasriddinova Sitara Utkirovna.....	569
PROBLEMS IN THE USE OF MEDICAL TERMS IN ENGLISH LINGUISTICS AND TRANSLATION STUDIES_Hodiyeva Yulduz Yunusovna.....	571
JOJO MOYESNING ZAMONAVIY INGLIZ ADABIYOTIDAGI HISSIY REALIZM VA IJTIMOY MASALALARGA YONDASHUVI_Tursunova Marxabo Raxmonovna.....	574
THE ART OF LITERARY TRANSLATION: CHALLENGES AND TECHNIQUES_Saidova Gulyora Abduhakimovna.....	576

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari, aziz mehmonlar!

Hurmatli professor-o'qituvchilar, aziz mehmonlar, ilmiy izlanuvchilar va konferensiya ishtirokchilari!

Barchangizni Osiyo xalqaro universiteti nomidan bugungi ilmiy-nazariy anjuman - "Xorijiy tillarni o'qitish metodologiyasini modernizatsiya qilish muammolari: mahalliy va xorijiy tajriba" mavzusidagi konferensiya bilan chin dildan tabriklayman.

Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni chuqur o'rganish, ularni o'qitish metodikasini takomillashtirish har bir ta'lim muassasasi oldidagi ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Chunki til - bu nafaqat muloqot vositasi, balki millatlararo madaniy aloqalarning, ilm-fan va innovatsiyalar almashuvining eng muhim ko'prigidir.

Ushbu konferensiya mahalliy va xorijiy tajribalarni solishtirish, ilg'or pedagogik yondashuvlarni tahlil qilish hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini xorijiy tillar ta'limiga samarali tatbiq etish yo'llarini muhokama qilishga qaratilgan. Bugungi ilmiy muloqotlar orqali siz, aziz olimlar va mutaxassislar, ta'lim jarayonida yuzaga kelayotgan dolzarb masalalarga yangicha yechimlar taklif etishingizga ishonaman.

Shuningdek, bu anjuman yosh tadqiqotchilar uchun o'z g'oyalari, tajribalari va innovatsion yondashuvlarini namoyish etish, ilmiy hamkorlik aloqalarini mustahkamlash uchun muhim maydon bo'lib xizmat qiladi.

Aziz hamkasblar!

Zamonaviy xorijiy tillar ta'limi - bu faqat darslik yoki metod emas, balki tafakkur, ijodkorlik va texnologiyaning uyg'unlashgan tizimidir. Biz ta'limni yangilash orqali o'quvchida nafaqat til bilimini, balki madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini, global fikrlashni shakllantirishimiz zarur.

Shu bois, bugungi anjuman nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ega deb hisoblayman. Undan chiqadigan xulosalar va takliflar mamlakatimiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga, o'qitish metodikasini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi.

Barchangizga samarali ish, ijodiy ilhom va muvaffaqiyatlar tilayman. Konferensiyamiz muvaffaqiyatli o'tsin!



**Hurmat bilan,
Osiyo xalqaro universiteti rektori
Suxrob Sobirovich Dexkanov**

shuningdek, o'quvchidan mavjud bilimlarini safarbar qilib, asarning yashirin qatlamlarini ochishga intilishni talab qiladi. Mazkur tadqiqot postmodern o'quvchilarning adabiy vositalar bilan qanday munosabatda bo'lishlarini yoritishga intiladi va ularni matnni o'z talqin uslubida tushunishga rag'batlantiradi. Shu nuqtai nazardan, Jon Foulzning "Fransuz leytenantining ayoli", Martin Amisning "Kechki poyezd", hamda Tomas Pinchonning "49-lot yig'isi" kabi postmodern asarlar yozuvchilar tomonidan ongli yoki ongsiz ravishda kiritilgan intertekstual adabiy vositalar o'rtasidagi bog'liqliklarni ochishga o'quvchi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Adabiyotlar ro'yxatlar:

1. Amis, Martin. Night Train. London: Vintage, 1998.
2. Fowles, John. The French Lieutenant's Woman. London: United Artists, 1969.
3. Pynchon, Thomas. The Crying Lot of 49. London: Vintage Books, 1974.
4. Bafoeva, R. (2025). FRAGMENTATION IN AMERICAN AND UZBEK POSTMODERN LITERATURE: A COMPARATIVE ANALYSIS. *Modern Science and Research*, 4(4), 514-520.
5. Rohila, B., & Malika, D. (2024). The benefits of learning English as a second language. In *Formation and Development of Pedagogical Creativity: International Scientific-Practical Conference (Belgium)* (Vol. 5, pp. 10-13).
6. Bafoeva, R. (2025). Stages and History of the Development of the American Postmodern Literary Movement. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 40, 22-31.
7. Bafoeva, R. (2025). Comparative Analyses of Fragmentation in American and Uzbek Literature. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 39, 118-122.
8. Bafoeva, R. (2025). Characteristics of postmodern literature: Playfulness, Fragmentation, Metafiction, Intertextuality in literary works of Thomas Pynchon and Ulug'bek Hamdam. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 38, 36-40.

ADABIYOTDA NUTQ ODOBI TUSHUNCHASI: SHARQ VA G'ARB ANA'ANALARI KESISHMASIDA

Komilova Dildora Shavkatovna

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Email:dkomilova703@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Sharq va G'arb adabiyotida nutq odobi tushunchasining mazmuni hamda ularning umumiy va o'ziga xos jihatlari yoritiladi. Sharq va G'arb an'analari nutq odobining umumiylik tomonlari sifatida samimiyat, rostgo'ylik va hurmatga asoslangan muloqot talqini ko'rsatiladi. Farqlovchi jihatlari esa turli ijtimoiy-madaniy sharoit va dunyoqarashlar bilan bog'liq holda yuzaga chiqqan. Maqolada ikki an'ananing kesishgan nuqtalari tahlil qilinib, ularning zamonaviy adabiy-estetik tafakkur taraqqiyotiga ta'siri ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Til, nutq, me'yor, nutqning voqealanishi, og'zaki va yozmanutq, dialogikva monologik nutq.

Kirish. Nutq odobi har qanday jamiyatda insonlararo munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy me'yorlardan biri hisoblanadi. Adabiyotda bu tushuncha chuqur falsafiy va estetik mazmun kasb etadi, chunki u nafaqat so'zlashuv madaniyatini, balki qahramonlar xarakterini, asar g'oyasini ham ochib beradi. Sharq va G'arb adabiy an'analari nutq odobiga turlicha yondashgan holda, o'ziga xos qadriyatlarni ilgari suradi. Sharq adabiyotida, xususan, Islom madaniyati ta'siridagi asarlarda nutq odobi ko'proq ma'naviy va axloqiy me'yorlar — hikmat, sabr, kamtarlik va so'zning mas'uliyati bilan bog'liq. G'arb adabiyotida esa nutq ko'proq shaxs erkinligi, individual fikrni ifodalash va muloqotning ijtimoiy jihatlari bilan bog'liq holda o'rganiladi. Ushbu maqolada adabiyotda nutq odobi tushunchasining Sharq va G'arb an'analari kesishmasida tutgan o'rnini, ularning o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy adabiyotda bu ikki an'ananing qanday uyg'unlashgani va o'zaro ta'siri ham yoritiladi.

Metodologiya. Ushbu maqolada tadqiqot masalalarini yoritishda taqqoslash, tahlil va qiyosiy poetik metodlarga asoslanildi. Avvalo, badiiy tilning nazariy jihatlari, uning oddiy muloqot tilidan farqli o'ziga xos xususiyatlari ilmiy manbalar asosida o'rganildi. Keyinchalik o'zbek va ingliz adabiyotiga oid poetik namunalardan misollar tanlanib, ular lingvopoetik tahlil qilindi.

Metodologik asos sifatida tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid nazariy manbalar, shuningdek, milliy va jahon adabiyotidagi poetik tahlil tajribalari qo'llanildi. Shu tariqa, maqolada tilning badiiy obraz sifatidagi talqinini ilmiy asosda izohlash, ijodkor mahoratining estetik ifodasini aniqlash imkoniyati yaratildi.

Asosiy qism: Adabiyot insoniyat tafakkuri, ruhiyati va estetik dunyoqarashini ifodalovchi eng qadimiy va beqiyos san'at turlaridan biridir. Har bir badiiy asarning ildizida til yotadi. Chunki til nafaqat voqelikni tasvirlash vositasi, balki ijodkor qalbi va ongida qayta yaratilgan badiiy olamni ifodalash qudratiga ham egadir. Shu boisdan badiiy asar tili oddiy muloqot vositasidan farqli o'laroq, poetik obrazlar, xalqona ruhiyat, milliy qadriyatlar hamda estetik tafakkurni mujassamlashtiradi. Badiiy til orqali millatning tarixi, urf-odatlar, psixologiyasi, madaniyati va ruhiy kechinmalari badiiy obrazlarda ifoda topadi.

O'zbek adabiyotiga nazar tashlaganimizda, uning ko'p asrlik tarixida tilning qadr-qimmatini va ahamiyati doimiy ravishda markaziy o'rin tutganini ko'rishimiz mumkin. O'zbek adabiy merosi — nafaqat san'at asarlari majmuasi, balki tilni ulug'lash va uning ijtimoiy-tarbiyaviy vazifasini yuksaltirishga xizmat qilgan ma'naviy xazinadir.

O'zbek mumtoz va zamonaviy she'riyati, Alisher Navoiy asarlaridan boshlab, tilni fikrning o'lmas qanoti va millat ruhi sifatida qadrlaydi. Shoirilar o'z ijodlarida so'zga berilgan badiiy qudratni namoyish etib, uning nafosatini, ta'sir kuchini va ma'naviy yuksalishdagi o'rini yuksak darajada tasvirlab berishgan. Til — shunchaki muloqot vositasi emas, balki chuqur falsafiy ma'no va estetik go'zallik manbai sifatida ulug'lanadi.

Alisher Navoiy o'zining butun hayotiy va ijodiy faoliyati bilan o'z davri nutq madaniyatiga, nutq odobiga mislsiz hissa qo'shgan bo'lsa, keyingi davrda yashagan Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy va boshqa shoirlarning asarlari tilida ham o'sha davr tili va nutq madaniyati ma'lum darajada aks etgan. "Yaxshi so'z — jon ozig'i", "Bug'doy noning bo'lmasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin", "O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir", "Har neni yemak — hayvonning ishi, har neni demak — nodonning ishi" kabi maqol va hikmatli so'zlarning paydo bo'lishi ham o'zbek xalqida nutq madaniyatiga avvaldan e'tibor kuchli bo'lganidan darak beradi.

Ingliz yozuvchisi va mashhur dramaturg Shekspir asarlari "Hamlet", "Romeo va Julietta", "Otello" kabilarda qahramonlar nutqi to'g'ri so'zlash, subutilik, yolg'ondan tiyilish, hazil va kinoyaning o'rni haqidagi dialoglar bilan boyitilganiga guvoh bo'lamiz.

Qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri "Qobusnoma" (1082- 1083)da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratomuz gaplar aytilgan bo'lib, ular hozir ham ma'lum darajada ahamiyatini yo'qotmagan. Kaykovus tomonidan yozilgan bu asarda shunday deyiladi: "Yaxshi so'zlashga o'rgan va muloyim so'zlashdan boshqa narsani odat qilma, negaki qanday so'zni gapirishni istasang, til shuni gapiradi. So'zni o'z joyida so'zla, joyida aytilmagan so'z, agar u yaxshi so'z bo'lsa ham, yomon ko'rinadi".

O'tmishda va o'tmishga oid adabiyotlarda ham alohida nutqiy mahorat bo'lgan notiqlik ko'rinishlari odamlarning kundalik nutqidan, nutqiy faoliyatidan farqlanganligi to'g'risida manbalar keltirilgan. Masalan, Qadimgi Yunoniston va Rimda nutq madaniyatining nazariy asoslari yaratilib, keyinchalik Yevropa nutq madaniyatiga bag'ishlangan fanning maydonga kelishiga asos bo'ldi. Nutq madaniyati notiqlik san'atini yaxshi egallagan rahbar so'z qudratidan foydalanib, odamlarni o'ziga qarata oladigan haqiqiy yo'lbo'shchiga aylanadi. Bu esa oson ish emas. Rimning buyuk notig'i Sitseron "Suxandonlik shunday sifatki, unga osonlikcha erishib bo'lmaydi va u juda ko'p bilim va mehnatdan tug'iladi", degan edi. Amerikalik siyosatchi va tadbirkor D.D.Uepster shunday degan: "Menda bor bo'lgan barcha narsani olib qo'ying. Menga so'zlash qobiliyatimni qoldirsangiz bas. Shunda men tez orada barcha yo'qotgan narsalarimni qayta qo'lga kiritaman". Darhaqiqat, bu e'tirof ortida katta hayotiy tajriba, tinimsiz izlanish yashiringan.

O'zbek shoiri Muhammad Yusuf ham tilga kelganini aytaverish, surishtirmay rost-yolg'onni gapiraverish, ayniqsa, o'tirib qolgan qizlarni "qariqiz" atab g'iybat qilish eng katta gunoh ekanligini bildirib, bu haqda o'ziga xos oddiy uslubda, bo'yoq-bezaklarsiz gapirib, nutq odobiga chorlaydi:

Tilga kelganini aytaveramiz,

Surishtirmay rostdir-yolg'ondir, biroq

Menimcha, dunyoda eng katta gunoh —

Qariqiz haqida g'iybat to'qimoq.

Bundan tashqari shoimning "Ko'hna quduq" dostonidan olingan quyidagi parchada to'yda ichib olib, tilini tiyolmaydiganlar, ba'zi to'y "raislari"ning vaysaqiligi tanqid qilingan:

Qadahlar jaranglar, qahqaha yangrar,

(Tilni tiyolmaslik bunday payt yomon).

Kecha raisining esa jag'i tinmaydi,

Hamd-u sano aytib to'ymaydi.

"Ona tilim jon-u dilim" deya she'r yozgan Latofat Bo'riyeva ham yuqoridagi kabi tilni ta'rif va tavsif aylaydigan satrlarni oddiy so'zlar orqali tizgan. U o'zbek tili haqida shunday deydi:

O'zbekimning iftixori,
Til millatning nomus-ori.

Ko'rinadiki, bu o'rinda oddiy haqiqat bilan bog'liq informatsiya kundalik muloqotda ishlatiluvchi tilda bayon etilgan. U xuddi kundalik muloqot paytida o'zga odam (shoir) yetkazayotgan informatsiyani o'quvchi tushuncha shaklida qabul qilishi, ammo shu jarayonda qabul qiluvchi ijodkorning his-tuyg'ularini ham informatsiya shaklida o'z tasavvuriga singdirishi ayonlashadi. Birinchi she'r misralarini o'qiyotganda o'quvchi ko'z o'ngida bee'tibor, vaysaqi, g'iybatchi kimsalar, ikkinchisida esa sergap, jag'i tinmas to'y raisi qiyofasi jonlanadi.

Aksincha, ingliz ertaklarida dialog dinamik qahramon o'zaro munosabatlarini yaratish va syujetni yanada murakkabroq tarzda rivojlantirish uchun ishlatiladi. Ingliz hikoyalaridagi qahramonlarga ko'pincha ularning shaxsiyati, kelib chiqishi va motivatsiyalarini aks ettiruvchi o'ziga xos ovoz beriladi. Masalan, Charlz Dikkensning asarlarida dialog ijtimoiy sharhlarga boy bo'lib, insonlarning gapirish usuli orqali sinfiy farqlarni va xarakter xususiyatlarini ochib beradi. O'tkir so'zlar, sarkazm va og'zaki nutqdan foydalanish qahramonlarga qatlamlar qo'shib, ularni yanada ishonarli va ko'p qirrali qiladi.

Shekspir "Sonnet 85" she'rida esa tilga quyidagicha ta'rif keltiradi:

My tongue-tied Muse in manners holds her still,
While comments of your praise, richly compiled,
Reserve their character with golden quill
And precious phrase by all the Muses filed.
I think good thoughts whilst other write good words,
And like unletter'd clerk still cry 'Amen'
To every hymn that able spirit affords
In polish'd form of well-refined pen.
Hearing you praised, I say 'Tis so, 'tis true,'
And to the most of praise add something more;
But that is in my thought, whose love to you,
Though words come hindmost, holds his rank before.
Then others for the breath of words respect,
Me for my dumb thoughts, speaking in effect.

Tarjimada:

Tilim lol-u, ilhom parim jim turar,
Sizni madh etuvchi dastalangan so'zlar,
Xislatigizni tillo qalam ilib borar,
Va barcha ilhomparilar sayqallagan misralar.
Men xayolimda yaxshi o'ylar surarman,
Boshqalar esa nafis so'zlarni yozarlar,
O'qishni bilmas xodimday "Omin" deyman,
Qobiliyatli ruh bergan har bir madhiyaga.
Sizni maqtashsa, "Shu rost, shundaydir" deyman men,
Eng katta maqtovga ham qo'shaman yana ne,
Ammo bu xayolimda, sizga bo'lgan sevgim –
(So'zlar keyin kelsa ham) martabasin tutar old,
So'z nafasiga hurmat uchun boshqalar,
Meni esa, ta'sir etgan so'zsiz o'ylarim maqtasinlar.⁷⁹

Bu sonetda Shekspir, "boshqalar sizni qalam bilan yuksak darajada madh etayotgan bo'lsa-da, mening sizga bo'lgan sevgim va hurmatim shu qadar kuchliki, uni so'z bilan ifodalashga tilim ojizlik qiladi," degan asosiy g'oyani ilgari suradi. U o'zining "jim o'ylari" ni, boshqalarning "sayqallangan so'zlari" dan ustun qo'yadi.

Natijalar va muhokamalar. Nutq va til odobi har ikki jamiyatda, ya'ni Garb av Sharqda ijtimoiy munosabatlarni boshqarish va qo'llab-quvvatlashning muhim omillari sifatida qabul qilinadi. Nutq odobi orqali muloqot samaradorligi oshadi, va odamlar orasidagi o'zaro hurmat, ishonch mustahkamlanadi. Ingliz va o'zbek jamiyatlaridagi muloyimlik ifodalari o'zaro farqlarga ega bo'lsa-da, ikkisida ham mazkur tamoyillar umumiy ijtimoiy me'yorlarni ifodalaydi.

⁷⁹ <http://eng-poetry.ru/PoemE.php?PoemId=553>

Nutq odobi ko'pincha nafaqat so'zlar bilan, balki tana harakatlari va ovoz ohangi bilan ham ifodalanadi. Shu sababli pichirlash baqirishdan ko'ra ko'proq og'irlik qilishi, so'zlaganda pauzalarni yaxshi tanlash lozimligi, ular so'zlardan ko'ra kuchliroq ta'sir qilishi qayd qilinadi.⁸⁰

So'zlaganda haqiqatni aytish, tinglovchi ruhiyatiga e'tiborli bo'lish, rostgo'ylikka intilish, qisqa va ravon gapirish muhim hisoblanadi. Qisqalik aqlning do'sti sifatida ta'riflanadi. Oz so'z bilan ko'pni aytishga chorlanadi.

Ingliz tilida maxsus iboralar orqali ham muloqot yumshoqligi ta'minlanadi. Bu farqlarga qaramasdan, har ikki tilda muloyim gaplashish ijtimoiy aloqa muvaffaqiyatining kaliti sifatida baholanadi. Shuningdek, har ikki madaniyatda gender, yosh va ijtimoiy maqom muloqot uslubiga ta'sir ko'rsatadi. O'zbek jamiyatida kattalarni hurmat qilish kuchli an'ana bo'lib, bu madaniyatning mustahkam ijtimoiy asoslaridan biridir. Nutqda muloyimlik va odobli muloqot ijtimoiy muvaffaqiyat va barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib qoladi.

Xulosa. Sharq va G'arb adabiyotida nutq odobi tushunchasi turli ijtimoiy, madaniy va estetik yondashuvlar asosida shakllangan bo'lsa-da, ularni birlashtiruvchi jihatlar mavjud. Sharq adabiyotida bu tushuncha ko'proq inson ma'naviyati, odob-axloq va muomala madaniyati bilan uzviy bog'langan. G'arb adabiyotida esa nutq odobi badiiy so'zning kuchi, axloqiy qadriyatlar va jamiyatdagi muloqot me'yorlari orqali ifoda etiladi. Shunday qilib, har ikki an'anada nutq odobi insoniy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim mezon sifatida qaraladi. Ularning kesishgan nuqtalari esa bugungi adabiy jarayonlar va ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kaykovus ibn Iskandar. Qobusnoma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2012. – 320 b.3. Heaney S. Electric Light. – London: Faber & Faber, 2001. – 128 p.

2. Г.Е. Халикулова. Описание Алишером Навои тона и речи образа. наука и образование 3 (4), 307-312

3. D.Sh.Komilova. Tarjimalarda nutqning madaniy moslashish holatlari. ISSN 2181-1709(P), 19-21.

4. Komilova, D. (2025). TIL ODOBI VA NUTQ MADANIYATI O'ZARO BOG'LIQLIGINING PRAGMATIK TOMONLARI. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 4(4), 93–96. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/zdif/article/view/730497>.

5. Komilova, D. (2024). Til bilish, uni qadrlash g'oyasi jadidlar va zamonaviy ijodkorlar talqinida. Ayniy vorislari 6 (3-4), 94-103.

6. <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5623>

CHRISTOPHER MARLOWE'S IMPACT ON ENGLISH LITERATURE

Tasheva Nafisa Zaynitdinovna

Asia International University Department of Foreign language and humanitarian sciences

Email: tashevanafisazaynitdinovna@oxu.uz

Abstract. Christopher Marlowe (1564–1593), one of the most significant playwrights of the English Renaissance, is widely regarded as the true forerunner of William Shakespeare. Although his life was short, Marlowe's works revolutionized Elizabethan drama through the introduction of blank verse, complex characterization, and themes of ambition, power, and human desire. This article explores Marlowe's contributions to English literature, focusing on his stylistic innovations, thematic concerns, and influence on later writers, particularly Shakespeare and the development of Elizabethan tragedy.

Keywords: Christopher Marlowe; English Renaissance; Elizabethan Drama; Blank Verse; Shakespeare; Tragedy; Humanism; Ambition; Overreacher Motif.

Introduction. The Elizabethan Age witnessed the flourishing of English drama, and Christopher Marlowe emerged as one of its most brilliant figures. Born in 1564, the same year as Shakespeare, Marlowe lived a turbulent life marked by academic success, political intrigue, and a mysterious death at the age of 29. Despite his brief career, his plays—*Tamburlaine the Great*, *Doctor Faustus*, *The Jew of Malta*, and *Edward II*—established new standards for dramatic form and poetic expression. His impact extends beyond his lifetime, shaping the course of English literature.

⁸⁰ Duffy, C. A. *The World's Wife* / C. A. Duffy. – London: Picador, 1999. – 96 p.

**XORIY TILLARNI O'QITISH METODOLOGIYASINI MODERNIZATSIYA
QILISH MUAMMOLARI: MAHALLIY VA XORIY TAJRIBA MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-NAZARIY ANJUMAN TO'PLAMI**

**СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ НАУЧНО-
ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ, ПОСВЯЩЁННОЙ ПРОБЛЕМАМ
МОДЕРНИЗАЦИИ МЕТОДОЛОГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ
ЯЗЫКОВ НА ПРИМЕРЕ ОТЕЧЕСТВЕННОГО И ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА**

**PROCEEDINGS OF THE REPUBLICAN SCIENTIFIC AND THEORETICAL
CONFERENCE ON PROBLEMS OF MODERNIZING THE METHODOLOGY
OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN THE EXAMPLE OF LOCAL AND
INTERNATIONAL EXPERIENCE**

Muharrir:
Texnik muharrir:
Sahifalovchi:
Dizayner:

A. Qalandarov
G. Samiyeva
Z. Elmurotova
M. Arslonov



Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original – maketdan bosishga
ruxsat etildi: 20.10.2025. Bichimi: 60/84 1/16 «Palatino Linotype» garn. Ofset
bosma usulida. Ofset bosma qog'ozi. Bosma tabog'i 44.5 Adadi 20.
Buyurtma № 314. Bahosi kelishilgan holda.



«Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahar O'zbekiston Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy.
Tel: 0(365) 222-46-46



**OSIYO XALQARO
UNIVERSITETI**

**XALQARO DARAJADAGI
TA'LIM MASKANI**

 **55 305 00 09**



**Vebsayt
www.oxu.uz**



**Telegram
t.me/oxu.uz**